

---

## RASMIY MUNOSABAT

Ijtimoiy tarmoqlarda Farg'ona shahar hokimligining xo'jalik hisobidagi Uy-joy bo'limiga nisbatan nizoli holatni yuzaga keltirib "Fuqarolarni hokimiyatga nisbatan noroziligini uyg'otayotgan kim? Farxodjon akaga rahmat aytaylikmi?" sarlavhasi ostida qo'yilgan video murojaat yuzasidan Farg'ona shahar hokimligining xo'jalik hisobidagi Uy-joy bo'limi quyidagilarni ma'lum qiladi.

Farg'ona shaharidagi davlat uy-joy fondi qisqarib borayotganligi va ushbu fond hisobidan 30 yildan buyon uy-joylar qurilmayotganligi sababli, davlat uy-joy fondidan turar joy olish uchun hisobda turgan fuqarolar hamda navbatdan tashqari uy-joy bilan ta'minlanishi lozim turar joylari buzilishga tushgan fuqarolar hamda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni turar joylar bilan ta'minlashda muammolar kelib chiqmoqda.

Ushbu masala bo'yicha Farg'ona shahridagi aholinnig uy-joyga muxtoj qatlamini manfaatlarini ko'zlagan holda davlat uy-joy fondi hisobidagi turar joylar bilan ta'minlashda kelib chiqayotgan muammolarni (davlat hisobidan turar joylar qurilmayotganligi va ushbu turdagi uy-joylar tugayotganligi va uy-joyga muxtoj sifatida hisobga olingan fuqarolarni uy-joy bilan ta'minlashni imkoni bo'lmayotganligini) hal etish va amaldagi qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan tayyorlangan takliflar bo'yicha shahar hokimligining xo'jalik hisobidagi Uy-joy bo'limi tomonidan 12.01.2021 yil kungi 91-sonli xat bilan Farg'ona shahar adliya bo'limiga murojaat etilgan.

Kiritilgan ushbu taklif murojaatnoma Farg'ona shahar adliya bo'limi tomonidan o'rganib chiqilib, bo'lim tomonidan uy-joyga muhtoj bo'lgan fuqarolarga uy-joy qurish, ajratish va taqsimlashni takomillashtirish bo'yicha amaldagi qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan tayyorlangan takliflar viloyat adliya boshqarmasiga kiritilishini ta'minlanishi bo'yicha hulosa xati olingan.

Lekin shu kunga qadar, ushbu sohani rivojlantirish hamda davlat uy-joy fondi hisobidan turar joylar qurilishi bo'yicha aniq bir tizim ishlab chiqilganicha yo'q.

Shu sababli, video murojaatda Farg'ona shahar hokimligining xo'jalik hisobidagi Uy-joy bo'limining faoliyatiga e'tiroz bildirayotgan fuqarolar, ya'ni, fuqaro Vakilova Taxmina Umarjon qizi (videodagi 1-murojaatchi fuqaro) davlat uy-joy hisobidagi xonadonlardan ajratib berish bo'yicha Farg'ona shahar hokimligiga ariza bilan murojaat etgan va uning arizasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26.02.2019 yildagi 170-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomiga muvofiq shahar hokimligi huzridagi uy-joy masalalari bo'yicha doimiy harakatdagi komissiyasining 17.04.2021 yildagi 3-sonli yig'ilish qarori bilan uy-joyga muxtoj deb topilib, umumiy tartibda 656-sonli navbatga olingan va yuqoridagi Nizomning 26-bandiga muvofiq fuqaro T.Vakilovaga Farg'ona shahrida foydalanishga topshirilayotgan yoki bo'shayotgan uy-joylarning maydonidan kelib chiqqan holda, ro'yxatda belgilangan navbat tartibida turar joy ajratib berilishi tushuntirilgan.

Shunnigdek, fuqaro T.Vakilovaning bo'lim tomonidan uning manfaatlarini ko'zlagan holda, "Farg'ona Mexanika" zavodiga qarashli bo'lgan A.Navoiy ko'chasi 70-uyda joylashgan yotoqxonaning 4-qavatdagi bo'sh turgan xonalaridan bo'lim tomonidan kapital ta'mirlab, unga navbatdan tashqari berish bo'yicha berilgan taklifga rozi bo'lganligi va xonadonlar kapital ta'mirdan chiqarilib fuqarolarga ajratib berilayotgan vaqtda fuqaro T.Vakilova Rossiya Federatsiyasiga ishlash uchun ketib qolganligi sababali ushbu yotoqxonadagi xonadonlar uy-joy olish uchun navbatda turgan nogiron va oilasida nogironi bor bo'lgan fuqarolarga ajratib berilgan.

Amaldagi qonunlarga ko'ra, fuqaro T.Vakilova uy-joy olish uchun navbatda turganligini inobatga olib, navbati kelgandan so'ng, quriladigan yoki bo'shaydigan davlat uy-joy fondidagi xonadonlardan ajratib berilishi qonun doirasida hal qilinadi.

Video murojaatda Farg'ona shahar hokimligining xo'jalik hisobidagi Uy-joy bo'limining faoliyatiga e'tiroz bildirayotgan fuqaro Xolmatova Shoiraxon hamda uning qaynonasi Botirova Yulduzxon Turgunovna (videodagi 2-murojaatchi fuqarolar) oilasiga uy-joyga muxtojligi sababli, Farg'ona shahar hokimining 29.09.2018 yildagi 1347-sonli qaroriga asosan 12.02.2020 yildagi 000342-sonli order bilan Farg'ona shahar B.Marg'inoniy ko'chasi 58-uyning 51-xonadoni (2 xonali) biriktirib berilgan va hozirgi kunda ushbu xonadonda fuqaro Sh.Xolmatova farzandlari bilan birga doimiy ro'yxatdan o'tgan holda yashab keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Miziyoevning tashabbuslari bilan yil bayramlarida bo'lim tomonidan ko'p turdagi oziq-ovaq maxsulotlari yetkazib berib turiladi.

Fuqaro Sh.Xolmatova oilasi davlat tomonidan turar joy bilan ta'minlangan bo'lsada, kelib chiqayotgan oilaviy nizolarni vaj qilgan holda O'zbekiston Respublikasi Uy-joy Kodeksining 40-moddasi 2-bandiga zid

---

ravishda shahar hokimligining xo'jalik hisobidagi Uy-joy bo'limidan takroran yana qo'shimcha uy-joy bilan ta'minlashni talab qilib kelmoqda.

Bo'lim tomonidan fuqaro Sh.Xolmatovaga shahar hokimligi tomonidan 2 xonali turar joy ajratib berilganligi va ushbu xonadonda yashash huquqi mavjudligi tushuntirilgan.

Shuningdek, murojaatda fuqaro Sh.Xolmatovaning yashab kelayotgan xonadonidan bo'lim tomonidan chiqarib yuborilayotganligi holati noto'g'ri ekanligi va xaqiqatga to'g'ri kelmasligini ma'lum qilamiz.

Video murojaatda Farg'ona shahar hokimligining xo'jalik hisobidagi Uy-joy bo'limining faoliyatiga e'tiroz bildirayotgan fuqaro Xaydarova Lolaxon Rasuljonovna qizi (videodagi 3-murojaatchi fuqaro) Farg'ona shahar hokimligiga uy-joy so'rab qilgan murojaatiga asosan Farg'ona shahar hokimining 25.08.2017 yildagi 1179-sonli qaroriga asosan Farg'ona shahar Farg'ona ko'chasi 6-uyning 23-xonadoni (1 xonali) ajratib berilgan.

So'ngra, fuqaro L.Xaydarovaning arizasiga binoan, yashab kelayotgan xonadoni Farg'ona shahar hokimining 10.03.2021 yildagi 129-sonli qaroriga asosan umumiy foydalanish maydoni kattaroq bo'lgan Farg'ona shahar Farg'ona ko'chasi 6-uyning 35-xonadoniga (2 xonali) almashtirib berilgan.

Xozirgi kunda fuqaro L.Xaydarova 2 nafar voyaga yetmagan farzandlari bilan birga ushbu xonadonda istiqomat qilib keladi va yil davomidagi bayramlarda bo'lim tomonidan oziq-ovaq maxsulotlari yetkazib berib turiladi.

Shuningdek, video murojaatning so'ngida Farg'ona shahar hokimligining xo'jalik hisobidagi Uy-joy bo'limining faoliyatiga e'tiroz bildirayotgan fuqarolarning murojaatlari (subsidiya, firibgarlik holatlari va h.k.) Farg'ona shahar hokimligining xo'jalik hisobidagi Uy-joy bo'limi vakolatlarga kirmasligini inobatga olib, murojaatlarni ishchi guruh tuzilgan holda o'rganib chiqish va murojaatlari tegishli tashkilot va organlarga qonuniy hal etish uchun yo'naltirilishi bo'yicha ishlar amalga oshirilishini ma'lum qilamiz.

***Farg'ona shahar hokimligining xo'jalik hisobidagi Uy-joy bo'limi***

2023-05-22 11:53:54